

INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING TUSHUNCHASI VA GENEZISI

Normamat Ramazonovich Mallayev

Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

Yusupov Zarifjon Erkin o'g'li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti magistr talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410310>

Annotatsiya. Mazkur maqolada intellektual mulk huquqining mohiyati, fuqarolik huquqi tizimidagi o'rni hamda uning tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, intellektual mulk tushunchasining xalqaro va milliy yuridik talqinlari yoritilib, mualliflik huquqi, patent huquqi va boshqa intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoya mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Qadimgi davrdan boshlab hozirgi zamonaviy davrgacha bo'lgan intellektual mulk institutining rivojlanish jarayoni ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, mualliflik huquqi, patent huquqi, tovar belgisi, innovatsiya, ijodiy faoliyat, fuqarolik huquqi, huquqiy himoya, ixtiro, dizayn, sanoat mulki, ilmiy ishlanma, xalqaro huquq, WIPO, muallif, huquqiy institut, texnologiya, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируется сущность права интеллектуальной собственности, его место в системе гражданского права и исторические этапы формирования. Рассматриваются международные и национальные подходы к понятию интеллектуальной собственности, а также правовые механизмы защиты авторских прав, патентов и других объектов интеллектуальной собственности. Особое внимание уделяется развитию института интеллектуальной собственности от древнего периода до современного этапа.

Ключевые слова: интеллектуальная собственность, авторское право, патентное право, товарный знак, инновация, творческая деятельность, гражданское право, правовая защита, изобретение, дизайн, промышленная собственность, научные разработки, международное право, ВОИС, автор, правовой институт, технологии, экономическое развитие.

Annotation. This article analyzes the concept of intellectual property rights, their place in the civil law system, and the historical stages of their formation. The study examines international and national interpretations of intellectual property, as well as legal mechanisms for protecting copyright, patents, and other intellectual property objects. Particular attention is given to the historical development of intellectual property law from ancient times to the modern era.

Keywords: intellectual property, copyright, patent law, trademark, innovation, creative activity, civil law, legal protection, invention, design, industrial property, scientific research, international law, WIPO, author, legal institution, technology, economic development.

Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyoti tobora ko'proq ilm-fan, texnologiya va ijodiy faoliyat bilan bog'lanib bormoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda moddiy boyliklar bilan bir qatorda inson aqliy mehnati natijasida yaratilgan g'oyalar, ilmiy ishlanmalar, texnologiyalar, adabiy va san'at asarlari ham katta ahamiyat kasb etadi.

Aynan shuning uchun ham bunday natijalarni huquqiy jihatdan himoya qilish zarurati paydo bo'lgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, intellektual mulk huquqi fuqarolik huquqining muhim institutlaridan biri sifatida shakllangan va bugungi kunda fuqarolik huquqiy tizimida alohida o'rin egallaydi.

Butunjahon Intellektual mulk tashkiloti (WIPO) intellektual mulk huquqini quyidagicha izohlaydi "Intellektual mulk (IM) inson ongining mahsuli bo'lgan yaratuvchanlik natijalarini anglatadi. Bular qatoriga ixtirolar, adabiy va badiiy asarlar, turli dizaynlar, shuningdek savdo faoliyatida qo'llaniladigan belgilar, nomlar va tasvirlar kiradi.

Intellektual mulk huquqiy jihatdan patentlar, mualliflik huquqi va tovar belgilari kabi huquqiy vositalar orqali himoya qilinadi. Bu himoya mexanizmlari yaratuvchilarga o'z ixtiro yoki ijodiy ishlari uchun e'tirof (tan olinishi) yoki moliyaviy foyda olish imkonini beradi.

Innovatorlar manfaatlari va keng jamoatchilik manfaatlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash orqali intellektual mulk tizimi ijodkorlik va innovatsiyalar rivojlanishi uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi." O'zbekistonda xizmat ko'rsatdan yurist Omonboy Oqyulov esa quyidagicha ta'rif beradi "Intellektual mulk huquqi o'z mohiyatifa ko'ra, inson ijodi faoliyati mahsullarini yaratish, ulardan foydalanish, farqlash belgilarining muomalada bo'lishi bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek, intellektual mulk obyektlariga nisbatan huquqlarni muhofaza qilishni tartibga soluvchi normalar yig'indisi majmuyi sanaladi". Bu fikrlarni jamlab intellektual mulk huquqi inson ijodiy mehnati mahsullari hisoblanmish ixtirolar, adabiy badiiy asarlar turli dizaynlar, shuningdek savdo faoliyatida qo'llaniladigan belgilar, nomlar va tasvirlarga bo'lgan mulk huquqi va buni tartibga soladigan huquq normalaridir deyishimiz mumkin.

Intellektual mulk huquqi ko'p yillik tarixga ega. U qadimgi dunyoda adabiyot va san'atning rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'lgan va bir necha bosqichda shakllangan.

Intellektual mulk tushunchasi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Uning birinchi misollaridan biri Rim shoiri Martialning (milodiy 40-104) ma'lum bir Fidentinga murojaat qilgan quyidagi so'zlari hisoblanadi: "Mish-mish tarqaldi, Fidentin, mening she'rlarimni o'qiyotganingizda ularni o'zingizniki deb yuritar ekansiz, agar ularni menda qoldirmoqchi bo'lsangiz, men sizga ularni bepul o'qish uchun yuboraman, agar ular sizniki bo'lishini istasangiz, ularni sotib oling — ular keyin meniki bo'lmaydi". Ushbu satrlar Rim qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Fidentin Marsialning she'rlarini bepul o'qishi mumkin edi, shuningdek, pul evaziga ularning muallifligini sotib olishi ham mumkin edi (bugungi kunda bunday xarid qonuniylashtirilgan plagiatga tenglashtiriladi).

Qadimgi Yunoniston va qadimgi Rim hukumati mualliflik asarlaridan ruxsatsiz foydalanishni taqiqlovchi qonunlarni qabul qildi. Intellektual mulk obyektlarini himoya qilish davlat tomonidan ta'minlandi. Asarlarning qo'lyozmalari maxsus arxivlarda saqlangan. Shunday qilib, qadimgi Yunonistonda va keyinchalik qadimgi Rimda intellektual faoliyatning rivojlanish davrida ushbu sohada birinchi huquqiy munosabatlar shakllandi: bu yerda, birinchi navbatda, mualliflik huquqi haqida, boshqa odamlarning asarlarini, masalan, teatr asarlarini qarz olish yoki buzish taqiqlangan.

Shuning uchun o'sha paytda mashhur bo'lgan tragediya va komediyalarning barcha qo'lyozmalari xususiy shaxslar (mualliflar) tomonidan emas, balki rasmiy arxivda saqlangan. Bu yerda ularning to'g'ri himoyasi ta'minlangan.

O'rta asrlarda Yevropada intellektual mulk to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O'sha paytda davlat hokimiyati organlari tomonidan turli sohalaridagi hunarmandlarning gildiyalari yoki birlashmalariga sanoat tarmoqlari ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek, ularning faoliyati yo'nalishi bo'yicha vakolatlar berilgan edi. Bundan tashqari, bunday gildiyalar qaysi tovarlar import qilinishi, sotilishi va yaratilishi, shuningdek, yangi ixtirolar bozorga qanday kiritilishi mumkinligi ustidan nazoratni amalga oshirdi.

Intellektual mulkni himoya qilish sohasidagi birinchi qonun hujjati — Venetsiya Respublikasining 1474-yildagi deklaratsiyasi. Ushbu hujjat amaliyotga “imtiyoz” tushunchasini kiritdi. Yangi mashina ixtirochisiga uning rivojlanishi uchun huquqiy himoya berildi. Hujjat berilgan kundan boshlab 10 yil ichida boshqa fuqarolarga shunga o‘xshash texnik qurilmalarni ishlab chiqarish taqiqlandi. Bunday rejim tarixda birinchi patent instituti bo‘ldi. Venetsiya Respublikasida olingan birinchi patent 1469-yilda Jon Shpeyerning patenti bo‘lgan. Ushbu patent Shpeyerga asarga bo‘lgan mutlaq huquqlarni berishdan iborat edi. Mualliflarning huquqlarini himoya qilish bilan bog‘liq birinchi normativ-huquqiy hujjatlardan biri sifatida 1421-yil 19-iyunda Florensiya Respublikasi tomonidan taniqli me‘mor Filippo Brunelleschining huquqlarini himoya qilish uchun chiqarilgan akti ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ushbu normativ-huquqiy hujjat nafaqat mualliflar va ixtirochilarning intellektual mehnat natijalariga bo‘lgan huquqlarini tan oldi, balki Yevropada intellektual mulk institutini rivjollantirishga turtki bo‘ldi.

XIV asrda G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida bozorga yangi tovarlar olib kelingan, shu munosabat bilan ushbu yo‘nalishni tartibga soluvchi qonunlar paydo bo‘ldi — Venetsiya Respublikasi to‘g‘risidagi nizom (1474) va ingliz monopoliyalari to‘g‘risidagi qonun (1624).

Aynan 1474-yildagi Venetsiya Respublikasi to‘g‘risidagi nizomda “patent” atamasi birinchi marta paydo bo‘ldi. Rossiyada esa bunday imtiyozlar XVIII asrda berila boshlandi. XVII–XVIII asrlarda mustaqil institutlar sifatida mualliflik huquqi va patent huquqi shakllandi. 1623 yilda Angliyada qirol Yakov Styuart tomonidan “Monopoliyalar haqida Statut” qabul qilindi. Bunda texnik yangilikni ishlab chiqqan va qo‘llagan shaxsga 14 yillik muddatga ushbu yangilikka nisbatan mutlaq huquq belgilandi. 1710 yilda “Qirolicha Anna Statuti” chiqarildi va adabiy asarlarga nisbatan ular yaratilgan vaqtdan boshlab 14 yil asarni e‘lon qilishga nisbatan mutlaq huquq belgilandi (ushbu muddat muallif hayotlik davrida yana 14 yilga uzaytirilishi mumkin edi). Ushbu qonunlarda imtiyozlar o‘ziga xos ko‘rinishga, insoniyga ko‘tarildi, ya‘ni monopoliya (yakka hokimlik) shakliga o‘tdi va hozirgi mutlaq huquqlarning ilk kurtaklari unda o‘z ifodasini topdi. Keyinchalik, XVIII asrning oxiriga kelib, jamiyatning an‘anaviy turidan industrial turiga o‘tish sodir bo‘ldi, bu mashina mehnatidan foydalanish bilan tavsiflanadi.

Asboblar, dastgohlar, yangi texnologiyalarning tarixiy rivojlanishi intellektual mulk huquqining rivojlanishiga olib keldi.

XIX asrning boshlariga kelib, yangi va eski dunyo mamlakatlarida patent qonuni faol rivojlandi. Sanoat rivojlanishi bilan Yevropa mamlakatlarida intellektual mulkni himoya qilish sohasida yangi qoidalar qabul qilindi. Turli mamlakatlarning qonunlarida ixtirolar uchun patent olish shartlari ko‘rsatilgan. Rossiyada “Imtiyozlar to‘g‘risida”gi qonun 1812-yilda qabul qilingan. Keyinchalik, 1911-yilda mamlakatda “Mualliflik huquqi nizomi” tasdiqlandi. Ushbu me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda Yevropa mamlakatlarining qonunchiligi asos bo‘ldi. 1917-yildan boshlab mualliflik asarlariga 5 yilgacha davlat monopoliyasi joriy etildi. XIX asrda ushbu sohada bugungi kungacha amal qilib kelayotgan bir qator xalqaro hujjatlar qabul qilindi: 1883 yilda amalga kiritilgan sanoat mulkini muhofaza qilish bo‘yicha Parij Konvensiyasi, 1886 yilda adabiy-badiiy asarlarni muhofaza qilish bo‘yicha Bern Konvensiyasi ishlab chiqildi. Taxminan shu davrda xalqaro intellektual mulk huquqi kabi tushuncha shakllandi, bu davlatlar o‘rtasida intellektual mulkka nisbatan turli xil aktlarning qabul qilinishi bilan tasdiqlanadi.

XX asrda intellektual mulk huquqi yanada rivojlandi. 1967 yilda Stokgolmda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) ni ta‘sis etish to‘g‘risida Konvensiya tuzildi.

Rossiyada intellektual mulk huquqining yanada rivojlanishi ushbu sohadagi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish bilan bog'liq. Intellektual mulk huquqi hozirgi kunda ham faol rivojlanmoqda. Bunga axborot texnologiyalarining tarqalishi va internet makonida mualliflarning manfaatlarini himoya qilish zarurati ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining rasmiy veb sayti www.wipo.int
2. Intellektual mulk huquqi. Risola. O.Oqyulov . Toshkent 2005.
3. Fuqarolik huquqi – darslik II qism – TDYU Mualliflar jamoasi, Toshkent 2007
4. Elektron resurslar